

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2024- yil “29” apreldagi
66- son buyrug‘iga ilova

Transport statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha
uslubiy nizom

“Transport statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga va xalqaro standartlarga muvofiq, transport statistikasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish, ularning xalqaro darajada taqqoslanishini ta‘minlash maqsadida, statistika organlari tomonidan respublika transport kompleksining holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli, rasmiy axborotni taqdim etish uchun statistika kuzatuvlarini o‘tkazishda, transport sohasida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni olishning asosiy jihatlari va usullarini belgilaydi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o‘rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizomda transport statistikasi (quvur yo‘li, temir yo‘l, avtomobil, havo yo‘li, daryo, shahar elektr transporti) bo‘yicha statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi, ma‘lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladigan axborot manbalari, tasniflashlar, asosiy tushunchalar, atamalar, ularni aniqlash, shuningdek, alohida statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, ushbu uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma‘lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

2. Transport sohasida turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar hajmi, tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat yuritadi. Shuning uchun transport statistikasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan statistika kuzatuvlari va ma‘muriy ma‘lumotlar tizimi bilan ifodalanadi, ularning har biri o‘z mavzusi va statistik kuzatuvlar birliklarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega.

3. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

transport statistikasi – transport sohasidagi o‘zaro bog‘liq statistik kuzatuvlar va ma‘muriy ma‘lumotlar tizimi bo‘lib, ularning har biri o‘z mavzusi va statistik kuzatuv birliklarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Statistikaning alohida tarmog‘i sifatida temir yo‘l, avtomobil, shahar elektr, quvur va havo transportlari faoliyati, shuningdek, avtomobil yo‘llari infratuzilmasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lgan yuk va yo‘lovchilarni tashish, transport vositalarining mavjudligi, qatnov yo‘llari va boshqa ko‘rsatkichlarni o‘rganadi;

avtomobil transporti – yuridik va jismoniy shaxslar ishtirokidagi sanoat va texnologik majmua bo‘lib, u yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochta aloqasini (keyingi o‘rinlarda yo‘lovchilar, bagaj va yuklarni) avtotransport bilan ta‘minlashda iqtisodiyot va aholining ehtiyojlarini qondiradi;

temir yo‘l transporti (temir yo‘l) – umumiy foydalanishdagi transport turlaridan biri hisoblanib, unga kiruvchi korxonalar, muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlar uchun tashkilotlar bilan yagona ishlab chiqarish-texnologik kompleks bo‘lib, boshqa davlatlarning temir yo‘llari va transportning boshqa turlari bilan o‘zaro munosabatlarda tashishga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlaydi;

umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti – uning tarkibiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlar uchun yagona ishlab chiqarish – texnologik kompleks bo‘lib, boshqa davlatlarning temir yo‘llari va transportning boshqa turlari bilan o‘zaro hamkorlikda tashishga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlaydi;

magistral quvur transporti – mahsulotni qabul qilish punktidan yetkazib berish punktigacha magistral quvurlar orqali texnik tartibga solish va standartlashtirish sohasidagi texnik normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tayyorlangan mahsulotlarni tashish uchun mo‘ljallangan transport turi bo‘lib, boshqa quvurlarga, boshqa transport yoki saqlash turiga yetkazishni ta‘minlaydi;

havo transporti – havo kemalari (samolyotlar) va ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani o‘z ichiga olgan transport turi: aeroportlar, dispecherlik va texnik xizmatlar;

shahar elektr transporti – energiya manbai sifatida elektr – energiyasidan foydalanadigan transport turi va tortish elektr motoridan foydalaniladi. Tashqi yoki ichki yonish dvigatellari bilan ishlaydigan transport vositalariga nisbatan uning asosiy afzalliklari – yuqori mahsuldorlik va ekologik xavfsizlikdir. Shahar elektr transportida statistik kuzatuv obyekti yo‘lovchilarni tashish, harakatlanuvchi tarkib, undan foydalanish, yo‘l stansiyalari, transport ishlarining moliyaviy natijalari hisoblanadi. Statistik kuzatuv birligini metro, tramvay va trolleybus korxonalari tashkil etadi;

daryo transporti – ichki suv yo‘li transporti – yo‘lovchilar, yuk va bagajlarni tashish ichki suv yo‘llari orqali ichki suzish kemalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan transport turi, shuningdek, kichik hajmli kemalar ishtirokida yuk tashish uchun ishlatiladigan transport turi;

tashilgan yuk (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj va pochtani qo‘shgan holda). Ko‘rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo‘yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo‘natilgan yuklar (jo‘natish)” ko‘rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko‘rsatkichi hisoblanadi;

Transportning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatilgan. Avtotransportda, tashilgan yuklarning hisob-kitobi kelish vaqtida amalga oshiriladi. Ayrim transport tashkilotlari uchun bajargan ishining umumiy hajmini tavsiflash uchun “yuklarni tashish (tashish)” ko‘rsatkichi qo‘llaniladi, bunda jo‘natilgan yuklar va boshqa tashkilotlardan tashish uchun qabul qilingan yuklarning yig‘indisi bilan ifodalanadi. Tashilgan yuk hajmi statistik ko‘rsatkichini hisabini yuritishda jo‘natilgan yuklar, ya’ni bunda yuk tashish shartnomasi bilan rasmiylashtirilgan yuk partiyasi (jo‘natma) inobatga olinadi.

tashilgan yo‘lovchilar – muayyan vaqt ichida tashilgan yo‘lovchilar soni transport va qatnov turlari bo‘yicha hisobga olinadi. Yo‘lovchi tashish statistikasida kuzatuv birligi yo‘lovchilar soni hisoblanadi. Jo‘natilgan yo‘lovchilarni hisobga olish vaqti transportning ayrim turlarida bir xil emas: yoki chipta sotib olish vaqtida (temir yo‘l, avtomobil, shahar elektr transportida) yoki transport vositasi jo‘natilgan paytda (suv va havo transportida);

transportning yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi o‘lchov birligi tonna – kilometr hisoblanadi. Tashilgan yukning har bir partiyasi (jo‘natilgan) og‘irligini uni tashilgan masofaga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi;

transportning yo'lovchi aylanmasi – yo'lovchining tashish masofasini hisobga olgan holda yo'lovchilarni tashish hajmini tavsiflovchi ko'rsatkich. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr, ya'ni yo'lovchini 1 km masofaga ko'chirish;

yuklarni tasniflash – transportda tashilayotgan mahsulotni ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini (kelib chiqishi, qayta ishlanganlik darajasi, maqsadi) va tashishning xususiyatini (harakatdagi tarkib turi, katta hajmli va boshqalar) aks ettiruvchi belgilar bo'yicha guruhlash. U nomenklatura deb nomlangan tizimli yuklar ro'yxati shaklida tuziladi;

tashish masofasi – ma'lum bir transport turida qatnov yo'li orqali obyektни jo'natish nuqtasidan belgilangan nuqtagacha tashish (transportirovka qilish) masofasi (kilometrda o'lchanadi);

aloqa yo'llari uzunligi – transport yo'llari uchastkalarining kilometrda umumiy uzunligi. Tarmoq uzunligi ma'lum bir sana uchun alohida uchastkalar uzunligini yig'ish orqali aniqlanadi;

yo'l-transporti hodisasi – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa;

temir yo'l transportining xavfsizligi – umuman olganda temir yo'l transportining holati, uning quyi tizimlarining va ularning bir-biri bilan o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi, bunda inson hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga, jismoniy va yuridik shaxslarning va davlatning mol – mulkiga zarar yetkazish bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmagan taqdirda, temir yo'l transporti (temir yo'l transporti yo'lida) hududida obyektlar va odamlarni bo'lisi bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda;

magistral neft quvurlari – neftni ishlab chiqarish maydonidan neftni qayta ishlash korxonalariga va tashkilotlariga, temir yo'l yuklash punktlariga, ma'lum bir maydon (kelib chiqish joyi) hududida joylashgan bosh nasos stansiyalariga, shuningdek, filiallarga tashish uchun mo'ljallangan quvurlar, alohida korxona va tashkilotlarga neft yetkazib berish uchun mo'ljallangan quvur yo'llari kiradi. Neft quvurlarining uzunligi bitta yo'nalish hisobida, jumladan, tarmoqlarning barcha uchastkalarining yonalish uzunliklari yig'indisi sifatida aniqlanadi;

magistral gaz quvurlari – gazni qazib olish yoki ishlab chiqarish joyidan gaz taqsimlash stansiyalariga uzoq masofalarga o'tkazish uchun mo'ljallangan quvurlar. Gaz quvurlarining uzunligi bosh nasos stansiyasining kirish kollektoridan

gaz taqsimlash stansiyasining kirish kollektoriga va chiziqli krandan iste'mol punktining gaz taqsimlash stansiyasining kirish kollektoriga chiziqli ajratmalarning chiziqli uzunligini bir martalik hisoblashda quvurlarning barcha uchastkalarining chiziqli uzunligi yig'indisi sifatida tavsiflanadi;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llarning foydalanish uzunligi – temir yo'lining poyezdlarni qabul qilish va jo'natish, yuklar, bagaj va yuk bagajini qabul qilish hamda topshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, manevr ishlarini amalga oshirish bo'yicha tegishli operatsiyalarni bajarish uchun ochiq bo'lgan temir yo'l bekatlari joylashgan tarmog'i;

idoraviy temir yo'l shoxobcha yo'llari – xo'jalik yurituvchi subyktlarga mulki bo'lgan, ayrim korxonalar, tashkilotlar va muayyan yuk jo'natuvchilar va qabul qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan, hamda umumiy foydalanishdagi temir yo'llar bilan tutashadigan temir yo'llar kiradi. Idoralarga qarashli temir yo'l shoxobcha yo'llarining mulkdorlari va temir yo'l transporti korxonalari o'rtasidagi munosabatlar shartnoma bilan belgilanadi;

temir yo'l infratuzilmasi – temir yo'lining harakatlanuvchi tarkibini shakllantirish, tarqatish, aylantirish, texnik xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan poyezdlarning bir joydan ikkinchisiga harakatlanishini to'liq ta'minlaydigan temir yo'l texnologik qurilmalar, inshootlar va asbob-uskunalar majmuasi;

avtomobil transportining umumiy yuk hajmi – mavjud yuk avtomobillarining har bir rusumi bo'yicha ularning nominal yuk ko'tarish qobiliyati (ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan berilgan pasporti asosida) yig'indisiga teng;

avtomobil transportining umumiy yo'lovchi sig'imi (o'rindiqlar soni bo'yicha), haydovchi o'rnini hisoblamagan holda har bir rusumdagi avtobuslar (mikroavtobuslar) sonini ularning o'rindiqlar bo'yicha sig'imiga ko'paytirishdan hosil bo'lgan ko'paytmani yig'indisi orqali aniqlanadi;

avtomobil yo'li – transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og'irlikda, o'lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek, ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo'shliq;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari – davlat mulki bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shaharlar hamda boshqa aholi punktlari o'rtasida yuklar va yo'lovchilar tashishni ta'minlaydi;

xo‘jalik avtomobil yo‘llari – davlat yoki yuridik va jismoniy shaxslarning mulkidir. Texnologik maqsadlarga xizmat qiladigan yo‘llar, shoxobcha, xizmat, patrul va boshqa shunga o‘xshash avtomobil yo‘llari xo‘jalik avtomobil yo‘llari jumlasiga kiradi;

umumiy bosib o‘tilgan masofa (kilometr) – transport vositasining garajga (to‘xtash joyiga) qaytishi va garajdan (to‘xtash joyidan) chiqib ketishi vaqtidagi spidometr ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bir kunlik farqni ifodalaydi. Umumiy bosib o‘tilgan masofa, hisobot davri mobaynida barcha foydalanilayotgan avtomobillarning har kunlik bosib o‘tgan masofalarini yig‘indisi orqali aniqlanadi;

yuk ko‘tarish qobiliyati (yo‘lovchi sig‘imi)dan foydalanish koeffitsienti (nominal yuk ko‘tarish qobiliyati (yo‘lovchi sig‘imi)dan foydalanish darajasi) – tashilgan yuklar (yo‘lovchilar) sonini avtomobilning texnik tavsifnomasi bo‘yicha nominal yuk ko‘tarish qobiliyati (yo‘lovchi sig‘imi)ga nisbati orqali aniqlanadi;

tramvay yo‘lining foydalaniladigan uzunligi (trolleybus liniyasi) ikki yoqlama hisobida yo‘llarda vagonlar (mashinalar) harakatlanishi uchun mo‘ljallangan yo‘ning (chiziq) uzunligini aks ettiradi;

yoyilgan yo‘llar uzunligi (liniya) hisobot yili oxiriga tramvay, metropoliten (trolleybus) xo‘jaligi balansida bo‘lgan barcha – yo‘lovchi, yuk, depo yo‘llari, razyezdlar, tutashgan yo‘llar, burilish halqalari va boshqa yo‘llar uzunligi qo‘shiladi va bir yoqlama (bir liniyali) yo‘l hisobida keltiriladi;

metro yo‘lining foydalaniladigan uzunligi, ikki yoqlama hisobda hisoblanadi va bekatlar orasidagi asosiy yo‘ning uzunligini tashkil etadi;

havo transportida muntazam tashuvchilar – yo‘lovchilar, yuk va pochta tashishni amalga oshiruvchi aviatashuvlar, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va aholining ehtiyojlari uchun muntazam va shartnoma asosida aviatsiya ishlari. Muntazam tashish rejalashtirilgan va haq evaziga e‘lon qilingan jadvalga muvofiq, amalga oshiriladigan reyslar, yoki ma‘lum bir tizimlashtirish uchun javobgar va jamoat foydalanishi uchun mavjud yetarli tez–tez parvozlar, shuningdek, muntazam reyslar ortiqcha yuk sabab qo‘shimcha reyslarni o‘z ichiga oladi;

havo transportida nomuntazam tashuvlar – aviakompaniyalar (ularning tashkiliy huquqiy va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar), korxonalar va aholining ehtiyojlari uchun yuk va yo‘lovchilarni tijorat asosida tashish va aviatsiya ishlarini faqat nomuntazam (charter) reyslar, maxsus reyslar, turistik yo‘nalishlarda amalga oshirish, bular muntazam tashuvlarda aks etmaydi;

tranzit tashishlar – yo‘lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo‘natmalarini O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali har qanday turdagi transportda olib o‘tish jo‘natish va yetkazish punktlari O‘zbekiston

Respublikasidan tashqarida bo'lgan yo'lining faqat bir qismi bo'lsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi transporti vositalarida chet davlatlar hududi orqali amalga oshiriladigan tashish – tranzit tashishdir.

2- bob. Ma'lumotlarni qamrab olish, qamrov darajasi

4. Transport statistikasida tarmoq mezoniga ko'ra, quvur, temir yo'l, avtomobil, havo va shahar elektr transporti statistikasi ajratilgan.

5. Transport statistikasi kuzatuv obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

“O'zstandart” Agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi, 2- tahriri (IFUT-2)ning 49, 50, 51, 52 kodlari bilan tasniflangan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuk va yo'lovchi tashish faoliyatini (asosiy va asosiy bo'lmagan) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari, alohida balansga ega bo'lganlar;

tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar.

6. Yuklarni tashish va yo'lovchilarni tashish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni statistik kuzatuvlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'z o'zini band qilgan jismoniy shaxslarni tanlanma statistika so'rovnomalari orqali qamrab olinishi statistika kuzatuvlari birliklarining yig'indisini shakllantirish statistika registri va soliq organlarining ma'lumotlari asosida har chorakda va har yili statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

7. Tanlov mezonlari: balansdagi yoki ijaraga beriladigan avtotransport vositalarining mavjudligi, yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakli, yuridik shaxsning mansubligi.

8. Transport sohasidagi statistik kuzatuvlar va so'rovlarning respondentlari bo'lib yuridik shaxslar, ularning alohida balansga ega bo'lgan alohida bo'linmalari, tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

9. Yuk tashish va yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi hajmlari temir yo'l, avtomobil va havo transporti bo'yicha dastlabki ma'lumotlar har chorakda, yakuniy ma'lumotlar – yilida bir marta shakllantiriladi.

Quvur transportining yuk tashish va yuk aylanmasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar har chorakda va yakuniy ma'lumotlar esa yiliga bir marta shakllantiriladi.

Shahar elektr transportida yo‘lovchilarni tashish va yo‘lovchi aylanmasi hajmi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar har chorakda, hamda yakuniy ma’lumotlar yiliga bir marotaba shakllantiriladi.

Temir yo‘l, quvur, avtomobil, havo, shahar elektr transportining moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yillik davriyligi asosida shakllantiriladi.

3- bob. Statistik kuzatuvning tashkiliy shakli.

10. Transport tashkilotlari faoliyatining statistik kuzatuvlari quyidagi shakllar asosida amalga oshiriladi:

statistika organlariga belgilangan tartibda respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistik hisobotlar va tanlanma kuzatuvlar;

idoraviy statistik kuzatuvlar;

ma’muriy ma’lumotlar.

4- bob. Statistik kuzatuvlari instrumentlari va dasturi

11. Statistik va idoraviy hisobotlarning quyidagi shakllari statistik kuzatuvlarini o‘tkazish vositasi hisoblanadi (quyida keltirilgan statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi):

avtomobil transporti statistikasi bo‘yicha:

taqdim etish davriyligi yillik:

1 transport shakli “Avtomobil, elektr (tramvay, metropoliten, trolleybus) transporti va xo‘jalik avtomobil yo‘llari uzunligi to‘g‘risida hisobot”;

1 kb shakli “Mikrofirma va kichik korxona hisoboti”;

1 notijorat shakli “Notijorat tashkiloti faoliyati to‘g‘risidagi hisobot”;

1 logistika shakli “Logistika, transport-ekspeditsiya faoliyati to‘g‘risidagi hisobot”;

1 kb (logistika) shakli “Logistika, transport–ekspeditsiya faoliyati to‘g‘risidagi hisobot”;

taqdim etish davriyligi choraklik:

4 transport shakli “Avtomobil, elektr (tramvay, metropoliten, trolleybus) transporti ishi to‘g‘risida hisobot”;

4 tr (jsh) shakli “Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyati to‘g‘risida so‘rovnoma” tanlanma so‘rovnoma natijalari;

temir yo‘l transporti statistikasi bo‘yicha:

taqdim etish davriyligi yillik:

1 temir yo‘l shakli (umumfoydalanmaydigan) “Umumiy foydalanilmaydigan temir yo‘l transporti to‘g‘risidagi hisobot”;

havo transporti statistikasi bo‘yicha:

taqdim etish davriyligi yillik:

1 havo yo‘llari shakli “Umumiy foydalanishdagi havo transporti xizmatlari to‘g‘risidagi hisobot”;

12. Rasmiy statistika ma‘lumotlarini shakllantirishda foydalaniladigan ma‘muriy ma‘lumotlar:

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti statistikasi bo‘yicha ma‘muriy ma‘lumotlar;

havo transporti statistikasi bo‘yicha “UZBEKISTAN AIRPORTS” AJ, “UZBEKISTAN AIRWAYS” AJlarning ma‘muriy ma‘lumotlari;

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari to‘g‘risida ma‘lumotlari;

Ichki ishlar vazirligining ro‘yxatdan o‘tgan avtomobil transport vositalari mavjudligi, YTH soni to‘g‘risidagi ma‘muriy ma‘lumotlari.

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yo‘lovchilar tashish hajmi ko‘rsatkichi bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining “Uztrans” yagona interaktiv axborot tizimining avtomobil transporti statistikasi bo‘yicha ma‘muriy ma‘lumotlari.

Davlat soliq qo‘mitasining ma‘muriy ma‘lumotlari ma‘lumot va O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining “Uztrans” yagona interaktiv axborot tizimi avtomobil transporti statistikasi bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar ro‘yxati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

13. Respondentlar tomonidan avtomobil transporti, havo, quvur, temir yo‘l, shahar elektr transporti ishi to‘g‘risidagi statistik va idoraviy hisobot shakllarini buxgalteriya hisobi, birlamchi hisob va boshqa hujjatlar ma‘lumotlari asosida to‘ldiriladi.

14. Statistika hisobotlari alohida balansga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari tomonidan E-STAT avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali elektron hujjat shaklida va alohida holatlarda qog‘oz ko‘rinishida yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladi.

Idoraviy hisobot yuridik shaxslar, alohida balansga ega bo'lgan yuridik shaxslarning bo'linmalari tomonidan elektron shaklda yoki qog'oz ko'rinishida idoraviy hisobot shakllarida ko'rsatilgan manzillarga taqdim etiladi.

15. O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shahar va tumanlar kesimida, faqat avtomobil transporti bo'yicha ma'lumotlar shakllanadi, qolgan temir yo'l, havo va quvur transportida tashish xizmatlarini hududlar bo'yicha taqsimlash imkoni mavjud emas. Shu bilan birga, transport statistikasining asosiy ko'rsatkichlari transport va tashish turlari bo'yicha (yuk va yo'lovchi) guruhlariga bo'linadi.

5- bob. Transport turlari bo'yicha statistik hisobotning xususiyatlari

1-§. Temir yo'l transporti statistikasi

16. Umumiy foydalanishdagi temir yo'l transportida statistik kuzatuvning asosiy obyektlari yuk va yo'lovchilarni tashish, harakat tarkibi, yo'l va yo'l xo'jaligi, transport faoliyatining moliyaviy natijalari hisoblanadi.

17. Temir yo'l qatnovlari quyidagi turlarga bo'linadi:

ichki qatnovlar – yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini O'zbekiston Respublikasi doirasida tashish;

xalqaro qatnovlar – yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasida tashish;

to'g'ri aralash qatnovlar – yuklarni yagona transport hujjati bo'yicha transportning har xil turlarida tashish. To'g'ri aralash qatnovlar ham ichki, ham xalqaro bo'lishi mumkin.

Alohida muhim davlat ehtiyojlarini, shu jumladan mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun yuklarning maxsus turlari tashilishini ta'minlovchi tashishlar maxsus tashishlar jumlasiga kiradi.

18. Umumiy foydalanishdagi temir yo'l transportida statistik kuzatuv birligi temir yo'l va uning mintaqaviy bo'linmalari, stantsiya, temir yo'l transporti korxonasidir.

19. Umumiy foydalanilmayotgan temir yo'l transportida statistik kuzatuv birligi balansda infratuzilmaga ega temir yo'l yo'llari, tortish tarkibi va tashishni amalga oshiruvchi korxona hisoblanadi.

20. Temir yo'l transporti statistikasining ma'lumotlarni shakllantirish uchun axborot manbalari choraklik va yillik davrlar bo'yicha statistik hisobot shakllari hisoblanadi.

21. Yuk tashish hajmini hisobga olish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

a) temir yo‘l transportida yuklarni tashish yetib kelishi bo‘yicha hisobga olinadi;

b) yukning alohida qismi, xususiy (shaxsiy) va bo‘sh holatdagi ijaraga olingan vagonlar, bagaj, yuk vagonlari bir nuqtadan ikkinchisiga yuborilgan va tashish hujjatlari bilan rasmiylashtirilgan deb hisoblanadi;

v) tashilgan yuklarning hajmini hisoblashda yuk tashish hujjatlarida ko‘rsatilgan og‘irlik, shu jumladan, yuk konteynerlarining og‘irligi, shuningdek, tashishda ishlatiladigan barcha moslamalar va jihozlarning vazni hisobga olinadi;

g) tashilgan xususiy (shaxsiy) va ijaraga olingan vagonlar soni bo‘sh holatda, har bir vagonning konteyner vaznidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

d) temir yo‘l transportida yuk aylanmasi bo‘sh holatda xususiy (shaxsiy) va ijaraga olingan vagonlarning og‘irligini bosib o‘tgan yo‘lini hisobga olgan holda aks ettiriladi, transport masofasidagi tonnalaridagi har bir jo‘natmaning yuk og‘irligini yig‘indisi sifatida hisoblanadi va tonna – kilometrlarda o‘lchanadi;

e) yo‘lovchilarni tashish ushbu hisobot davrida sotilgan va bepul berilgan chiptalar soniga ko‘ra, shu davrga to‘g‘ri keladigan yo‘lovchi tashishlar, guruh chiptalari, yuk hujjatlari, obuna va boshqa chiptalar bo‘yicha amalga oshiriladi;

j) temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish aylanmasi transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmini ko‘rsatadi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi.

z) yuk tashishdan tushadigan daromadlar yuk to‘lovidan, xususiy (shaxsiy) va ijaraga olingan vagonlarning bo‘sh ish vaqti, qo‘shimcha yig‘imlar, temir yo‘l ma‘muriyatlari o‘rtasida yuk tashish uchun hisob-kitoblardan iborat;

i) bagajni tashishdan olinadigan daromad yuk tashish to‘lovi va bagaj kvitansiyasining orqasida ko‘rsatilgan qo‘shimcha to‘lovlar miqdori bilan belgilanadi;

k) yo‘lovchilarni tashishdan tushadigan daromadlar orasida yuk tashish to‘lovlari miqdori va tezkorlik uchun turli xil to‘lovlar, uyqu joylari, kupe va yumshoq vagonlarda sayohat qilish kiradi. Yo‘lovchilarni tashishdan tushadigan daromadlar yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun dotatsiyalar va subsidiyalarni o‘z ichiga olmaydi.

2-§. Avtomobil va shahar elektr transporti statistikasi

22. Yuk va yo‘lovchilarni tashish, harakat tarkibi, ulardan foydalanish, transport ishlarining moliyaviy natijalari avtomobil transportida statistik kuzatuv obyektlari hisoblanadi.

23. Avtomobilda tashishlar shahardagi, shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro tashishga bo‘linadi.

Shahardagi tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shahar atrofidagi tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan 50 kilometr gacha tashqarida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shaharlararo tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan 50 kilometrdan oshiq masofada amalga oshiriladigan tashishlar, shuningdek, yo‘nalish masofasidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasining ikki yoki undan ortiq viloyatlar hududida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Xalqaro tashishlar jumlasiga yo‘nalish masofasidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga yoki davlat chegarasi tashqarisidan amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

24. Avtomobil va shahar elektr transporti statistik kuzatuv birligi bo‘lib avtotransport vositalaridan foydalanuvchi korxonalar, tramvaylarda, trolleybuslarda va metroda tashishni amalga oshiruvchi korxonalar, avtotransport vositalari egalari jismoniy shaxslar (yuk va yo‘lovchilarni tijorat maqsadida tashish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi ish bilan band qilgan jismoniy shaxslar) hisoblanadi

25. Avtomobil va shahar elektr transporti statistikasi bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish uchun axborot bazasi:

a) transport korxonalari va tashkilotlarining choraklik va yillik davriylikda statistik kuzatuvlari;

b) davlat organlarining transport vositalari mavjudligi, avtomobil yo‘llari uzunligi, yo‘l – transporti hodisalari to‘g‘risidagi ma’muriy ma’lumotlari;

v) avtomobil transporti sohasida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar faoliyati hajmlarini baholash.

26. Tashish hajmlarini hisobga olish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

a) shahar yo‘nalishida transportda (avtobus, elektrobus, trolleybus, yo‘nalishli taksi, tramvay va metropolitenda) tashilgan yo‘lovchilar soni:

cheklangan tariflarni qo‘llagan holda – sotilgan bir martalik chiptalar soni bo‘yicha yoki tushumni cheklangan tarifga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, elektron to'lov tizimi operatorlariga amaldagi cheklangan tariflarga nisbatan 10 foizgacha chegirma taqdim etilishi mumkin;

transport kartasidan foydalangan holda – transport kartasidan foydalangan yo'lovchilarning, jumladan, imtiyozli va bepul yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchilarning har bir transport turida amalga oshirilgan validatsiyalari soni bo'yicha aniqlanadi. Muayyan tashuvchi tomonidan tashilgan yo'lovchilar hajmi hisobot davrida amalga oshirilgan validatsiyalarni umumlashtirish orqali aniqlanadi;

b) oylik transportda yurish kartochkasi va transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni:

sotilgan oylik transportda yurish kartochkalari va transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalarning berilgan sonini Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 17- sentabrdagi 273- son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida yo'lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo'nalishlarda hamda soatlar bo'yicha tashilgan yo'lovchilar sonini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq belgilangan oylik yurishlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;

tashuvchilar o'rtasida ulardan har birining bir martalik chiptalar bo'yicha tashilgan yo'lovchilari soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

v) shahar atrofidagi yo'nalishlarda tashilgan yo'lovchilar soni yo'lovchi aylanmasini ushbu muayyan yo'nalishda yo'lovchi bosib o'tadigan o'rtacha masofaga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

g) shahar yo'nalishidagi shahar atrofi yo'nalishlarida tashilgan yo'lovchilar soni tashilgan yo'lovchilarning umumiy sonini shahardagi yo'nalishning umumiy yo'nalish masofasidagi ulushiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

d) shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda tashilgan yo'lovchilar soni sotilgan bir martalik chiptalar soni hamda transportning aniq bir turida amalga oshirilgan validatsiyalar soniga teng holda qabul qilinadi.

